



## TASHBEH SAN'ATI VA UNING TURLARI

Almardanov Dilmurod

Oriental Universiteti o'qituvchi-stajyori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18722444>

### ARTICLE INFO

Received: 13<sup>th</sup> February 2026

Accepted: 15<sup>th</sup> February 2026

Published: 21<sup>st</sup> February 2026

### KEYWORDS

*tashbeh, mushabbah, mushabbah bihi, vajhi shabah, vosita, balog'at ilmi, badiiy tasvir, hissiy tashbeh, ma'naviy tashbeh, Alisher Navoiy.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada badiiy adabiyotning muhim tasviriy vositasi bo'lgan tashbeh (o'xshatish) san'atining mohiyati, uning tarkibiy qismlari va turlari balog'at ilmi qoidalari asosida tahlil qilingan. Maqolada tashbehning to'rt rukni — mushabbah, mushabbah bihi, vajhi shabah va vositaning o'zaro bog'liqligi misollar yordamida yoritib berilgan. Shuningdek, tasvir ob'ektlarining tabiatiga ko'ra tashbehning to'rt turi (hissiy-hissiy, ma'naviy-ma'naviy, hissiy-ma'naviy, ma'naviy-hissiy) Alisher Navoiy, Najib Kiyloniy kabi adiblarning asarlari hamda arab mumtoz she'riyati namunalari orqali batafsil tahlil etilgan. Maqola so'ngida tashbehning inson tafakkuri va millat dunyoqarashini ifodalashdagi falsafiy ahamiyati yuzasidan xulosalar berilgan.*

Insoniyat yaralgandan buyon borliqni tushunishga, atrofdagi voqelikni o'z tuyg'ulari orqali ifodalashga intilib keladi. Bu intilish badiiy adabiyotda, xususan, mumtoz va zamonaviy she'riyatda tashbeh san'atining yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Tashbeh — bu shunchaki ikki narsa o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatish emas, balki so'z san'atkorining fikrni teranroq, obrazliroq va ta'sirliroq yetkazish usulidir. Olamdagi narsa va hodisalarni bir-biriga qiyoslash orqali biz nafaqat tasvirning yorqinligiga, balki tushunchalarning yangicha ma'no qirralari ochilishiga ham guvoh bo'lamiz. Sharq adabiyoti takomilida tashbeh nafaqat tasviriy vosita, balki falsafiy mushohada quroli sifatida ham shakllangan. Shu bois, ushbu badiiy san'atning mohiyatini anglash — so'zning qudratini va badiiy tafakkur taraqqiyotini o'rganish, tashbeh qiluvchining ichki dunyosini, fikriy tizimini bilish ham demakdir.

Badiiy san'at sifatida tashbeh (o'xshatish) — muayyan bir predmet yoki hodisani aniqroq tasavvur qilish, uning mohiyatini bo'rttirib ko'rsatish uchun uni o'zidan kuchliroq, tanishroq bo'lgan boshqa predmetga qiyoslashdir.

Arab tili va balog'at ilmi qoidalari ko'ra, tashbeh quyidagicha ta'riflanadi:

*التشبيه - إلحاق أمر بأمر في وصف بأداة لغرض (Tashbeh — bir narsani muayyan bir sifatda, ma'lum bir maqsad yo'lida, maxsus vosita yordamida boshqa narsaga bog'lashdir).*

Har bir mukammal tashbeh to'rtta asosiy elementdan tashkil topadi. Buni quyidagi misol orqali ko'rib chiqamiz:

الهداية العلم كالنور في الهداية (*Ilm hidoyatda (yo'l ko'rsatishda) nur kabitir*)

- mushabbah علم
- mushabbah bihi نور
- vajhi shabah هداية
- vosita ك

Ushbu tizimda mushabbah va mushabbah bihi tashbehning ikki asosi (طرفان) hisoblanadi. Tashbehning kuchi ko'pincha vajhi shabah (o'xshatish asosi)ning qay darajada tanlanganiga bog'liq. Masalan, ilmning nurga o'xshatilishiga sabab — har ikkisinining ham insonni zulmatdan (jaholatdan) qutqarishi va to'g'ri yo'lni ko'rsatishidir.

Tashbeh san'ati o'xshatish asosi va tasvirlanayotgan ob'ektlarning tabiatiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi. Bu turlar orqali ijodkor voqelikni hissiylik yoki mavhumlik darajasiga ko'ra qatlamlarga ajratadi. Tashbehdagi mushabbah va mushabbah bihining moddiy yoki ma'naviy ekanligiga ko'ra to'rt xil ko'rinishi mavjud:

1. Hissiy-hissiy
2. Ma'naviy-ma'naviy
3. Ma'naviy-hissiy
4. Hissiy-ma'naviy

Hissiy-hissiy tashbeh. Ushbu turdagi tashbehlarda mushabbah va mushabbah bihi sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va ushlab ko'rish) orqali idrok etish mumkin bo'lgan aniq moddiy narsa yoki hodisalardan iborat bo'ladi. Bu usul tasvirning yorqinligini va o'quvchi ko'z o'ngida jonli manzara hosil bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, "Tundek qora soch" — bu yerda sochni (ko'rish a'zosi orqali idrok etiladigan moddiy narsa) tunning qorong'uligiga (hissiy tasvir) qiyoslash orqali rangning o'ta to'qligi ifodalangan. "Yuzi dokaday oqarib ketdi" — inson yuzidagi rangsizlanish holati doking oppoqligi bilan qiyoslanib, qo'rquv yoki hayajon holati vizual (ko'z bilan ko'riladigan) obrazga aylantirilgan.

Hissiy-hissiy tashbehlar badiiy asarlarda eng ko'p uchraydigan tur bo'lib, ular tasvirning emotsional quvvatini oshiradi va o'quvchiga voqelikni "ko'rib turish" imkonini beradi. Najib Kiyoniyning "Turkiston kechalari" asaridagi ushbu tasvir bunga yorqin misoldir:

*"Qilich va miltiqlar qurigan shoxlar kabi devorlarda osilib turar, ajdodlarining tarixi esa chang bosgan sahifalar bag'rida uxlab yotardi".*

Ushbu misolda har ikki tomon ham hissiy (ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan moddiy narsalar). Biroq, muallif odatda kuch-qudrat ramzi bo'lgan qilich va miltiqni qurigan shoxga (jonsizlik, mo'rtlik ramzi) o'xshatish orqali Turkiston xalqining o'sha davrdagi siyosiy va harbiy ojizligini, qurollarning o'z vazifasini yo'qotib, shunchaki keraksiz buyumga aylanganini mahorat bilan ko'rsatib bergan.

Ma'naviy-ma'naviy: ushbu turdagi tashbehlarda mushabbah ham mushabbah bihi ham sezgi a'zolari bilan ushlab yoki ko'rib bo'lmaydigan, faqat aql va qalb bilan idrok etiladigan mavhum tushunchalardan iborat bo'ladi. Bu usul ko'pincha falsafiy xulosalarni, axloqiy va tarbiyaviy g'oyalarni ta'sirli ifodalash uchun qo'llaniladi. Masalan, johillik bamisoli o'lim kabitir. Bu yerda johillik — mushabbah, o'lim — mushabbah bihi bo'lib kelmoqda. Har ikki tushuncha ham moddiy shaklga ega emas, ya'ni ma'naviydir. Muallif bu o'xshatish orqali ilmsiz insonning jamiyatdagi holatini jonsiz jismga qiyoslab, ilmning hayotbaxsh kuch ekanligiga ishora qilmoqda.

العشق كالموت يأتي لا مرد له

ما فيه للعاشق المسكين تدبير

*Ishq o'lim kabitir — u kelganda qaytarib bo'lmas,  
Bechora oshiqning uni daf qilishga chorasi yo'qdir.*

Ushbu misolda har ikki tomon ham ma'naviy (mavhum) xarakterga ega. Muallif ishqni o'limga qiyoslash orqali muhabbatning inson irodasidan tashqari ekanligini, u xuddi ajal kabi to'satdan kelishini va kelganda unga qarshi hech qanday chora ish bermasligini o'ta keskin va o'ziga xos tarzda ifodalagan. Bu o'xshatish oshiqning ushbu tuyg'u qarshisidagi ojizligini ko'rsatib beruvchi eng kuchli obrazlardan biridir.

Hissiy-ma'naviy: mushabbah hissiy, mushabbah bihi ma'naviy bo'lsa hissiy-ma'naviy tashbeh deyiladi. Badiiy tasvirda hissiy ob'ektni ma'naviy tushunchaga qiyoslash o'ziga xos murakkab uslub sanaladi. Biroq, balog'at ilmi va adabiyotshunoslikda tashbehning bu turi qolganlariga qaraganda bir qadar past baholanadi. Buning asosiy sabablari quyidagilardir:

- Anqlikning pasayishi. Tashbehning tub mohiyati — noma'lum yoki murakkab narsani ma'lum va aniq narsa orqali tushuntirishdir. Hissiy narsani ma'naviy (faqat tasavvur qilinadigan) tushunchaga o'xshatish esa jarayonni teskarisiga aylantiradi. Ya'ni, aniq narsa mavhumlik orqali tasvirlanadi.

- Tasavurning murakkablashishi. O'quvchi ko'z o'ngida moddiy shaklni gavdalantirish o'rniga, u yana-da chuqurroq mushohada va mavhumlikka yetaklanadi. Bu esa tashbehning "tasvirni soddalashtirish va yorqinlashtirish" g'oyasiga ma'lum ma'noda zid keladi.

Garchi hissiy-ma'naviy tashbeh idrok etish jihatidan murakkab sanalsada, u badiiy adabiyotda o'ziga xos estetik vazifani bajaradi va kutilmagan ta'sirchanlik kasb etadi. Uning o'rni va qimmatini shundaki, u moddiy borliqni shunchaki tasvirlamaydi, balki unga ruhiy mazmun yuklaydi. Masalan, "Uning yuzi botini kabi qorayib ketgan edi". Bu yerda tashbehning go'zalligi shundaki, muallif oddiy jismoniy holatni (yuzning qoraligi) shunchaki rang sifatida emas, balki ma'naviy fojia sifatida taqdim etadi. Agar yuzni "tun" yoki "ko'mir" kabi hissiy narsalarga o'xshatganda, biz faqat rangni ko'rardik. Ammo yuzning botinga o'xshatilishi o'quvchining tasavvurida o'sha insonning qiyofasi bilan birga uning butun tubanlashgan qalbini ham namoyon qiladi. Demak, bu turdagi tashbehlar tasvirni aniqlashtirish uchun emas, balki tasvirning ichki mohiyatini, hissiy-psixologik qatlamini ochish uchun xizmat qiladi. Bu esa asarning falsafiy chuqurligini ta'minlovchi o'ziga xos badiiy usuldir.

Garchi hissiy narsani ma'naviy tushunchaga qiyoslash murakkab usul hisoblansa-da, so'z mulking sultoni Alisher Navoiy ham ushbu turdan foydalanib, g'oyat yuksak badiiy saviyaga erishgan. Buning yorqin misolini "Farhod va Shirin" dostoni xotimasida ko'rish mumkin:

Bihamdillahki, bu g'am dostoni,  
Firoq ahlig'a motam dostoni,  
Tugatmay nomayi umrumni ayyom,  
Visol ayyomi yanglig' topti itmom.

Navoiy bu yerda asarning yakunlanish jarayonini "visol ayyomi yanglig'" deya o'xshatadi. Bu yerda ijodiy jarayonning tamomlanishi (mushabbah) oshiqning visol onidagi (mushabbah bih) cheksiz quvonch hissi bilan qiyoslangan.

Ma'naviy-hissiy: Tashbehning bu turi adabiyotda eng keng tarqalgan va mukammal deb e'tirof etilgan usuldir. Bunda inson tasavvuridagi mavhum tushuncha barchaga tanish bo'lgan, sezgi a'zolari bilan idrok etsa bo'ladigan aniq predmetga qiyoslanadi. Bu turdagi tashbehning yuksak baholanishiga sabab — u ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan tuyg'u yoki sifatni o'quvchi ko'z o'ngida jonli va aniq shaklda gavdalantirib beradi. Masalan, "tog'day matonat". Matonat ma'naviy tushunchadir. Uni tog'ga qiyoslash orqali inson irodasining naqadar ulug'vor, qat'iy va qimirlatib bo'lmas darajada mustahkamligi jonli ochib berilgan. Ma'naviy-hissiy tashbehning eng go'zal namunalaridan birini quyidagi arabcha baytda ko'rishimiz mumkin:

الرأي كالليل مسود جوانبه

والليل لا ينجلي إلا بإصباح

*Fikr tun kabidir — har tarafi qorong'ulik bilan qoplangan,  
Zulmatli tun esa faqat tong otishi bilan yorishadi.*

Ushbu tashbehda inson ongida tug'ilgan, hali so'z bilan ifodalanmagan fikr barchaga tanish bo'lgan tun zulmatiga qiyoslanmoqda. Tun qanchalik qorong'u bo'lsa, u kishida shunchalik mavhumlik va hadik uyg'otadi. Uni faqat tong yorug'ligi (bayon va nutq) yoritishi mumkin.

Shoir bu orqali fikrning naqadar murakkab jarayon ekanligini, u faqat aniq so'z va bayon (tong) orqali yorqinlik kasb etishini g'oyat mahorat bilan ko'rsatib bergan. Bu misol ma'naviy tushunchani moddiy obraz orqali o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirishning klassik namunasi.

Tashbeh — shunchaki ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi shakliy qiyos emas, balki insonning olamni anglash va tasavvur qilish usulidir. Har bir millatning o'ziga xos tashbehlar tizimi mavjud bo'lib, ularni tadqiq etish orqali o'sha xalqning dunyoqarashi, mifologik ildizlari va hayotiy falsafasini kashf etish mumkin.

Tashbehning eng hayratlanarli jihati shundaki, u mantiqan bir-biridan uzoq, butunlay boshqa-boshqa bo'lgan ikki olamni yagona nuqtada bog'lay oladi. Bunday kutilmagan bog'liqliklarni topish va ularni badiiy haqiqatga aylantirish — insoniyat tafakkurining haqiqiy mo'jizasi.

Shu bilan birga, tashbeh — ijodkor shaxsiyatining ko'zguvidir. Shoir yoki yozuvchi tanlagan obraz uning ichki olami, estetik ideali va g'oyaviy maqsadidan dalolat beradi. Binobarin, badiiy matndagi har bir o'xshatishni sinchkovlik bilan tahlil qilish, uning zamiridagi subyektiv va obyektiv qatlamlarni anglash — asarning tub mohiyatiga yetishning yo'llaridan biridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulaziz Mansur. Qur'on oyatlari ma'nolarining tarjimai. T. 2014.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 1-jild. 2000 yil.
3. Sharifov Z. "Balohat fani" (Bayon va bade' ilmlari). Toshkent. Movarounnahr. 2014. B.3.
4. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. Toshkent. 1998.
5. Ziyovuddinova M. Muallaqot. Johiliyat davri adabiyoti. (o'quv qo'llanma). Toshkent. 1993.
6. .2017. حفني ناصف. دروس البالغة. إسطنبول.